ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

XORAZM XALQ QO'SHIQLARI TILIDAGI MANGLAY LEKSEMASINING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARIGA DOIR

Ozadova Ma'mura Ergashevna,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Lingvistika (o'zbek tili) mutaxasisligi magistri

Xalq qo'shiqlari o'zbek folklorining eng sermahsul, eng ommabop, xalqchil, o'ta qadimiy hamda tabiiy janrlaridan biridir. Bu hol, ayniqsa Xorazm vohasi aholisi juda qadimdan kuylab va asrlar davomida asrab kelgan qo'shiqlarning g'oyalarida, badiiyati hamda til xususiyatlarida yorqin ko'rinadi. Xorazm xalq qo'shiqlari o'ziga xos original tizimga, mahalliy, lokal xususiyatlariga ega.[1] Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasi tadqiqotchisi bo'lgan M.Jumanyazova ham ular o'zining qadimiy ildizlari, poetik tizimi, obrazlar dunyosi, leksik boyligi va o'ziga xos fonetik-morfologik xususiyatlari bilan ajralib turishi ta'kidlaydi[2]. Xorazm vohasi folklori tilining bir qismi bo'lgan qo'shiqlar tili tarixiy qatlamlar, turkiy lahjalar, jumladan, o'g'uz unsurlarining kuchli ta'siri natijasida shakllangan murakkab til tizimini namoyon etadi.[3]

Xorazm xalq qo'shiqlarida ko'p ma'noli so'zlar katta ulushni tashkil etadi. Odatda so'zlar dastlab denotativ ma'noni anglatuvchi leksik birlik sifatida yaratiladi va keyinchalik ma'noviy tuzilishning tadrijiy rivoji natijasida u ko'p ma'noli, ya'ni polisemantik so'zga aylanadi. Bunda so'zning dastlabki va keyingi ma'nolari o'zaro bog'liq bo'ladi.[4]

Polisemiyaning ushbu hududga xosligi, avvalo, Xorazm vohasida keng qo'llaniladigan o'g'uz lahjasi ta'siri bilan izohlanadi.[5] O'g'uz tilida qadimdan mavjud bo'lgan ma'no ko'chish modellari qo'shiqlar tilida o'ziga xos ravishda boyigan. Binobarin, xalq qo'shiqlaridagi polisemantik hodisalar shevalardagiga qaraganda ko'proq turg'un, barqaror bo'ladi, ya'ni qo'shiq matni ma'lum qolipda yashab kelgani uchun so'z ma'nosi vaziyatga qarab o'zgarib ketmaydi. Bu esa qo'shiqlarning poetik tizimining barqarorligini ko'rsatadi.

Qo'shiq matnlaridagi polisemiyani yoritish uchun mang'lay so'zining turli ma'nolarda qo'llanishi juda yorqin misol bo'la oladi.

Manglay leksemasining asliy (denotativ) ma'nosi "peshona" hisoblanadi. Ushbu leksema qadimiy turkiy tillarda "peshona" ma'nosini bildirgan[6] va Xorazm qo'shiqlarida ham shu ma'noda ishlatiladi:

Ro'molimni manglayima duyaman,
Ko'ylak giysam qizilidan giyaman.[7]

"Peshona" ma'nosi *manglay* so'zining asosiy, tarixiy qatlamdagi denotativ ma'nosidir. Manglayning metonimik ma'nosi esa "uy yoki buyumning old tomoni, yuzasi" hisoblanadi. Qiziqarli jihat shundaki, mang'lay so'zi qo'shiqlarda:

Uyini so'rasang, toqqa manglayda,
Oldi hovuz, gujum, fayzli joyda.

kabi misralarda "oldingi qism", "yuza tomoni" ma'nosida qo'llanadi.[8] Bu metonimik kengayish bo'lib, "peshona – old tomondagi qism" semantik modeli asosida shakllangan.

"Manglay" so'zi ko'plab lingvokulturologik ahamiyatga ega frazeologizmlar tarkibida qo'llanadi:

1. Mang'laydan suyamak – "qo'llab-quvvatlamoq", "mehr berish", "homiylik qilish".

Nasib bo'lsa gulni gulga ulayman,
Jonim ota, manglayingdan suyayman.

Bu ibora Xorazm madaniyatida peshonadan o'pish – shafqat va hurmat belgisi sifatida qaralgan.

2. Manglayini yig'irmoq – "norozilik bildirmoq", "yoqtirmaslik".

[1] Қуранбоева Н. Хоразм тўй қўшиқлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.8-9.
[2] Жуманязова М. Хоразм халқ қўшиқлари лексикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.3.
[3] Jumanyazova M. Xorazm vohasi folklor materiallari tilining leksik qatlamlari: Filol. fan. d-ri ...diss. –Buxoro, 2025. – 78 b.
[4] Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – М., 1958. – С.34; Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.112.
[5] Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.82-97.; Мадрахимов А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского языка: Дисс. д-ра филол.наук. – Ташкент, 1978. – С.280-290.
[6] Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.Mutallibov. I jild.– Toshkent: O'z FAN, 1960.
[7] Xorazm xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1965. – 413 b. (Misollar shu manbadan olindi.)
[8] Madrahimov O. O'zbek tili o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati. – Urganch, 1999. – 170 b.

Oq so'vita qantaradi otini,
Manglayini yig'iradi xotini.

Bu iborada peshonaning tirishishi – hissiy holatning tashqi ko'rinishi sifatida tasvirlanadi.

3. Manglayini chitmoq – "ochiq yuzli bo'lmaslik", "rozi emaslik".

G'ovachadan oq momiqni sitmayman,
Endi senga manglayimni chitmayman.

Bu ham o'g'uz tillarida keng uchraydigan obrazli ibora bo'lib, Xorazm shevasida saqlanib qolgan.

4. Manglayi oy – "baxtli, oydek yorug' peshona".

Sizga tushgan go'zalni,
Mang'layi oy yor ekan.

5. Manglayi qora – "baxtsiz, nosoz taqdir", "sho'r peshona".

Boshida taxyosi, gullari ola,
Dushmanlarni bo'lgay manglayi qora.

Bu ibora lingvokulturologik jihatdan qarg'ish formulasi vazifasini bajaradi.

Xorazm qo'shiqlarida ma'no kengayishlari faqat poetik maqsadga xizmat qilmaydi, ular orqali "xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari, ishonchlari, madaniy tajribasi aks etadi".[1] Masalan, "Peshona" obrazining kulturologik ildizlariga qarasak, turkiy xalqlarda peshona taqdir belgisi, odamning obro'si, "yorug' yuzlilik", "baxtning ko'rinishi" sifatida qaraladi. Shu bois manglayi oy – yorug' peshona ijobiy ma'no kasb etadi, manglayi qora – qora peshona esa yomon sifatlar, badbaxtlik bilan bog'lanadi.

Bu tendensiya turkiy mifologiya, etnolingvistika, qadimiy ta'birlar tizimida ham mavjud.

"Manglay" so'zining "uyning old qismi" ma'nosida qo'llanishi Xorazm vohasiga xos makon va uy-joy strukturasiga oid tasavvurlarning tilga aks etgan shaklidir.

Uylar ko'pincha "yuza tomoni", "kirish qismi" orqali identifikatsiya qilingan.

Manglay leksemasining lingvopoetik xususiyatlar (badiiy-estetik jihatlar)ini tahlilga tortsak, qo'shiqlarda polisemantik so'zlar quyidagi poetik funksiyalarni bajaradi:

1. Poetik zichlik yaratadi. Bir so'zning bir nechta ma'noda qo'llanishi qo'shiq matnini obrazli, mazmunli qiladi.

2. Emotsional-badiiy ta'sirni kuchaytiradi. "Manglayi qora" kabi birliklar hissiy ta'sir kuchini oshiradi.

3. Badiiy obrazlar tizimini boyitadi. Qo'shiqlar o'ziga xos metafora va metonimiyalar tizimini yaratadi.

4. Sheva unsurlari orqali milliy kolorit shakllanadi. O'g'uz lahjasiga xos leksemalar qo'shiqning "Xorazmona" ruhini mustahkamlaydi.

Ta'kidlash joizki, "manglay" leksemasi nafaqat ko'p ma'noli so'z sifatida, balki Xorazm xalq mentalitetining tasavvurlari – baxt, qismat, rizq, mehr, norozilik kabi tushunchalarni ifodalovchi kulturologik belgilar tizimi sifatida ham qimmatga ega.

Yuqoridagi tahlillar Xorazm xalq qo'shiqlari tilining murakkab va ko'p qatlamli tabiati borligini ko'rsatadi. Polisemantik birliklar, frazeologik iboralar, metafora va metonimik kengayishlar: lingvokulturologik belgilar tizimini, xalqning qadimiy tasavvurlari va mental qiyofasini, turkiy lahjalararo tarixiy bog'liqlikni, badiiy poetik mahoratni yorqin aks ettiradi.

"Manglay" so'zi misolida esa Xorazm xalq qo'shiqlaridagi polisemiyaning qanday semantik mexanizmlar orqali shakllanishi va qanday kulturologik ma'nolarni yuklab kelishi ochiq namoyon bo'ladi.

Ko'rinadiki, "manglay" leksemasi o'zbek tilida ko'p qirrali semantik tizimga ega. Bu birlik nafaqat anatomik atama sifatida, balki xalq tafakkurida qadriyatlar, dunyoqarash va ijtimoiy-madaniy tushunchalarni mujassam etuvchi lingvomadaniy konsept sifatida shakllangan. Folklor, maqol va barqaror iboralardagi qo'llanilishi "manglay"ning konseptual maydonini yanada boyitadi. Shu bois leksemaning semantik va madaniy qatlamlarini o'rganish o'zbek tilshunosligida antropotsentrik yo'nalish tadqiqotlari uchun muhim manba hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada Xorazm xalq qo'shiqlari leksikasidagi *manglay* leksemasining lingvokulturologik va lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Unda manglay nafaqat polisemantik so'z sifatida, balki ijtimoiy-madaniy tushunchalarni mujassam etuvchi lingvomadaniy konsept sifatida ham tahlil qilinadi.

Резюме. В данной статье рассматриваются лингвокультурные и лингвопоэтические особенности лексемы «манглай» в лексиконе хорезмских народных песен. Анализируется «манглай» не только как многозначное слово, но и как лингвокультурное понятие, воплощающее социокультурные концепции.

Resume. This article discusses the linguocultural and linguopoetic features of the lexeme manglai in the lexicon of Khorezm folk songs. It analyzes manglai not only as a polysemantic word, but also as a linguocultural concept embodying socio-cultural concepts.

[1] Jo'rayev R. Til va madaniyat: lingvomadaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 240 b.